MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI TASHQI SIYOSIY FAOLIYATINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TARIXI

Sirojiddin Saydullayev

Alfraganus universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va dastlabki o‘n yillik rivojlanish jarayoni tarixiy va siyosiy jihatdan tahlil etilgan. Unda SSSR parchalanishidan keyingi yangi geosiyosiy vaziyat, mustaqil davlatlarning xalqaro munosabatlar tizimiga kirib borishi va o‘z tashqi siyosat strategiyalarini shakllantirish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqa davlatlarining tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatgan ichki va tashqi omillar, jumladan siyosiy institutlar, xavfsizlik muammolari, iqtisodiy cheklovlar va yetakchi davlatlar bilan munosabatlar tahlil qilingan. Har bir davlatning o‘ziga xos tashqi siyosiy modeli – betaraflik, ko‘pvektorlik yoki muvozanatli diplomatiya asosida rivojlanganligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, geosiyosat, mustaqillik, ko‘pvektorlik, betaraflik*

Abstract. This article provides a historical and political analysis of the formation and development process of the first decade of the foreign policy activities of Central Asian states. It highlights the new geopolitical situation after the collapse of the USSR, the entry of independent states into the system of international relations, and the processes of forming their foreign policy strategies. It also analyzes internal and external factors that have influenced the foreign policies of the region's countries, including political institutions, security challenges, economic restrictions, and relations with leading states. It is revealed that each state's unique foreign policy model developed based on neutrality, multi-vectorism, or balanced diplomacy.

Keywords: *Central Asia, foreign policy, geopolitics, independence, multi-vector,*

neutrality

Kirish

SSSR parchalanishi va hukumron kommunistik tizimning qulashi bilan xalqaro munosabatlarda ikki tizimli tartib barham topdi. Endilikda asosiy xususiyat sifatida geosiyosiy makonning amorfligi va ko‘p markazliligi namoyon bo‘la boshladi. Ilgari global mafkuralar bilan mustahkamlangan qat’iy tuzilma o‘rnini turli yo‘nalish va manfaatlarga ega davlatlarning plyuralistik maydoni egalladi. Bu jarayon Markaziy va Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalarida siyosiy xaritaning tubdan o‘zgarishiga, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Yangi geosiyosiy vaziyatda davlatlar tashqi siyosatini “tizim intizomi”ga moslash zarurati yo‘qoldi va ular xalqaro maydonda mustaqil subyekt sifatida harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Sobiq ikki tizimli qarama-qarshilik o‘rnini etnik, diniy, ijtimoiy va ichki siyosiy mojarolar egalladi. Natijada global miqyosda yirik urush xavfi kamaygan bo‘lsa-da, mintaqaviy va mahalliy nizolar ko‘paydi. Bu holat xalqaro munosabatlarda barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash masalasini yanada murakkablashtirib, yangi, demokratik va samarali xalqaro mexanizmlarni shakllantirish zaruratini yuzaga chiqardi [1].

Asosiy qism

Mustaqillikdan keyingi davrda Markaziy Osiyoda tashqi siyosatning shakllanishi tarixiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. SSSR parchalangach mintaqa davlatlari ilk bor o‘z tashqi siyosatini mustaqil ravishda yuritish zarurati bilan yuzma-yuz keldi. Biroq bu davlatlar ilgari ichki siyosiy masalalarni ham mustaqil hal etmagan edi. Shu sababli nazariy va amaliy jihatdan Markaziy Osiyodagi besh yangi mustaqil davlat mustaqillikka tayyor holatda bo‘lmagan. Mustaqillikka erishish yo‘llari va vositalari ham turlicha kechdi. Eng og‘ir va fojeali yo‘l Tojikiston hissasiga to‘g‘ri kelib, u besh yil davom etgan fuqarolar urushiga tortildi. Bu holat mintaqada davlat qurilishi va tashqi siyosatning barqaror

shakllanishi qanchalik murakkab jarayon ekanini yaqqol namoyon etdi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro o‘xshash tarixiy an’analar va madaniy qadriyatlarga ega bo‘lsalar-da, har biri rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanladi. Barcha mintaqa davlatlari bir xil ichki siyosiy muammolarga duch keldi: islomiy radikalizm xavfi, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, konfessiyalararo muammolar, ekstremizm, terrorizm va separatizm. Radikalizm masalasi ayniqsa Tojikiston, O‘zbekiston va Qirg‘izistonda keskin tus oldi. Ushbu omillar tashqi siyosat ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda o‘z ahamiyatiga ega bo‘ldi. Ichki muammolar bilan bir qatorda, yangi mustaqil davlatlar tashqi siyosiy masalalarda ham jiddiy sinovlarga duch keldi. Davlat chegaralarini belgilash, suv va energetika resurslarini adolatli taqsimlash mintaqaviy miqyosdagi dolzarb muammolarga aylandi[3].

Mustaqillikdan keyingi Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosiy yo‘nalishlari shakllanishining institutsional va siyosiy asoslarini sovet davridagi holatdan qidirish mumkin. Aynan shu davrda ittifoq respublikalarida siyosiy tizimlarning tubdan transformatsiyasi yuz berib, bu jarayon keyinchalik mustaqil davlatlarning xalqaro maydondagi xatti-harakatlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. KPSS nufuzining pasayishi va uning “siyosiy tizim yadrosi” sifatidagi huquqiy maqomini yo‘qotishi Markaziy Osiyoda yangi tashqi siyosiy subyektlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Bu jarayon davlat suvereniteti, xalqaro huquqiy tan olinishi va tashqi aloqalarni mustaqil yuritish imkoniyatlarini kengaytirgan institutsional o‘zgarishlar bilan kechdi[10]. Prezidentlik institutining joriy etilishi, Oliy Kengash-larning qonun chiqaruvchi organlarga aylanishi hamda ko‘ppartiyaviylikning shakllanishi tashqi siyosatni markazlashtirilgan holda yuritishga sharoit yaratdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlarida sovet davriga mansub partiya-davlat nomenklaturasi tashqi siyosiy qarorlar ustidan ham nazoratni saqlab qoldi. Demokratik va milliy muxolifatning institutsional jihatdan zaifligi natijasida sobiq kompartiya rahbarlari davlat boshqaruvi va tashqi siyosatning

asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi prezidentlik lavozimlariga muammosiz o‘tdilar. 1990-yilda O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston SSR Oliy Kengashlari respublika Markaziy Qo‘mitalarining birinchi kotiblari bo‘lmish Islom Karimov, Nursulton Nazarboyev va Saparmurod Niyozovni prezident etib sayladilar. Bu holat tashqi siyosatda vorislik, ehtiyotkorlik va avvalgi sovet diplomatik an’analarining muayyan darajada saqlanib qolishiga olib keldi. Tojikistonda esa tashqi siyosiy yo‘nalishlarning shakllanishi murakkab ichki siyosiy inqiroz sharoitida kechdi. Klanlararo raqobat va siyosiy beqarorlik mamlakatni haqiqiy fuqarolar urushiga olib keldi. Ushbu jarayon Tojikiston SSR Prezidenti va ayni paytda Respublika Kompartiyasi birinchi kotibi bo‘lgan Qahhor Mahkamovning iste’fosi bilan yanada keskinlashdi. Uning o‘rnini egallagan Rahmon Nabiev ham mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta’minlay olmadi. Islomiy kuchlar va dunyoviy davlat tarafdorlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik tashqi siyosatning izchil yuritilishiga jiddiy to‘sqinlik qildi. Fuqarolar urushi yakunida 1994-yil noyabrda prezident etib saylangan Emomali Rahmon hokimiyatni mustahkamladi. Uch yil o‘tib, mamlakatda zaif holatdagi tinchlik o‘rnatildi, uning asosini klanlar o‘rtasida davlat-ma’muriy lavozimlarni taqsimlash va tashqi siyosatda muvozanatli pozitsiyani saqlash tashkil etdi[7].

Siyosiy institutlarning zaifligi va huquqiy an’analarning yetarlicha shakllanmaganligi sharoitida mustaqil Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosiy yo‘nalishlari, prezident shaxsi bilan uzviy bog‘liq bo‘ldi. Davlat rahbarlarining shaxsiy qarashlari, siyosiy tajribasi va xalqaro aloqalari tashqi siyosat strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarini belgilovchi asosiy omilga aylandi. Natijada tashqi siyosatda markazlashuv, pragmatizm va xavfsizlikka yo‘naltirilgan yondashuv ustunlik qildi. Bu uchun huquqiy asoslar ham yaratildi. Jumladan, Turkmaniston tashqi siyosatda betaraflik (neytrallik) maqomini e’lon qildi va dunyoda Shveytsariyadan keyin doimiy betaraflikni e’lon qilgan va bu xalqaro darajada tan olingan davlat bo‘ldi. O‘zbekiston va Qozog‘iston betaraflikka yaqin yoki muvozanatli tashqi siyosat yurita boshladi. Shu

bilan birga, Turkmanistonda tashqi siyosat ko‘proq shaxsiylashtirilgan, O‘zbekiston va Qozog‘istonda esa institutsiyonallashtirish jarayonlari bilan ajralib turdi. Xususan, 1999-yildagi konstitutsiyaviy o‘zgartishlar Turkmaniston tashqi siyosatida shaxsiylashtirilgan yondashuvni yanada kuchaytirdi: Niyozovga oliy davlat lavozimini muddatsiz egallash huquqi berildi. Natijada mamlakatda birinchi prezident shaxsiga sig‘inish shakllanib, u “Turkmanboshi” – “turkman xalqining otasi” sifatida e’lon qilindi[9]. Bu holat Turkmaniston tashqi siyosatining yakkalanish, betaraflik va shaxsiy diplomatiyaga asoslanishiga olib keldi.

1991–2000-yillar O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining shakllanish va institutlashuv davri bo‘lib, mazkur bosqichda mustaqil davlatning xalqaro maydondagi o‘rni, asosiy ustuvor yo‘nalishlari va diplomatik xulq-atvori belgilab olindi. Milliy tashqi siyosat konsepsiyasi davlat suverenitetini mustahkamlash, milliy xavfsizlikni ta’minlash va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan normalari asosida teng huquqli munosabatlar o‘rnatishga qaratildi. Mazkur davr tashqi siyosiy qarashlarining huquqiy poydevori sifatida 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Qonun muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu hujjatda O‘zbekiston tashqi siyosatining Konstitutsiya normalariga, milliy manfaatlarga hamda xalqaro tashkilotlar prinsiplari va majburiyatlariga asoslanishi aniq belgilandi. O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatini Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalarning tamoyillariga mos ravishda olib borishini e’lon qildi. Konsepsiyaning muhim jihati davlat suvereniteti va mustaqilligini har qanday shaklda cheklashga qarshi qat’iy pozitsiya egallanganidir. Qonunga muvofiq, O‘zbekiston boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, mafkuraviy qarama-qarshiliklardan xoli bo‘lish va o‘zaro foydali hamkorlik tamoyiliga asoslangan tashqi aloqalarni rivojlantirishni asosiy yo‘l sifatida belgiladi. Bu yondashuv amalda O‘zbekistonning

barcha davlatlar bilan muvozanatli va ehtiyotkor diplomatik munosabatlar olib borishida namoyon bo‘ldi[5].

Amaliy jihatdan, 1990-yillarda O‘zbekiston tashqi siyosati asosan ikki yo‘nalishda olib borildi: bir tomondan xalqaro-huquqiy legitimlikni mustahkamlash va diplomatik tan olinuvni kengaytirish; ikkinchi tomondan esa ichki siyosiy barqarorlik va iqtisodiy mustaqillikni saqlashga xizmat qiladigan ehtiyotkor tashqi aloqalarni rivojlantirish. Natijada 1991–2000-yillar milliy tashqi siyosat konsepsiyasi O‘zbekistonning mustaqil, suveren va xalqaro tizimda o‘z manfaatlarini qat’iy himoya qila oladigan davlat sifatida shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi.

1991-yilda mustaqillikka erishgan Qozog‘iston tashqi siyosatini shakllantirish jarayonini nihoyatda murakkab ichki va tashqi sharoitlarda boshladi. Markaziy Osiyodagi boshqa yangi mustaqil davlatlar singari Qozog‘iston ham dastlab milliy manfaatlar, tashqi siyosiy ustuvor yo‘nalishlar va milliy xavfsizlik tahdidlari borasida yetarli darajada shakllangan konseptual qarashlarga ega emas edi. Mustaqil davlatchilik an’analarining yo‘qligi, diplomatik tajribaning kamligi, malakali kadrlar tanqisligi hamda Sovet Ittifoqi parchalanishi ortidan yuzaga kelgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz mamlakat tashqi siyosatining resurslarini jiddiy cheklab qo‘ydi[15]. Qozog‘iston tashqi siyosatining shakllanishiga mamlakatning Rossiya va Xitoy bilan uzoq chegaralarga egaligi hamda aholining katta qismini slavyan millatiga mansub aholi tashkil etgani hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi. Shu sababli rasmiy Ostona tashqi siyosatda murakkab muvozanatni saqlashga intildi. Mamlakat rahbariyati Rossiya va Xitoyning strategik manfaatlarini hisobga olgan holda, ularga haddan tashqari qaramlikka tushib qolmaslikni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. 1992-yildayoq Prezident Nursulton Nazarboyev tomonidan ilgari surilgan “ko‘pvektorlik va muvozanatlilik” tamoyili Qozog‘iston tashqi siyosatining konseptual asosi sifatida shakllandi[14]. Bunda yadro qurolidan voz kechish, yadroviy infratuzilmani tugatish Qozog‘istonning xalqaro imijiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Rossiya bilan munosabatlar Qozog‘iston tashqi siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Siyosiy, iqtisodiy va harbiy sohalardagi chuqur o‘zaro bog‘liqlik, savdo aylanmasining katta qismi Rossiyaga to‘g‘ri kelishi, shuningdek, xavfsizlik masalalarida Qozog‘istonning mustaqil harakat qilish imkoniyatlarining cheklanganligi bu “maxsus munosabatlar”ni taqozo etdi[2]. Rossiya bilan yaqinlik Qozog‘iston suverenitetini bosqichma-bosqich mustahkamlash vositasi sifatida ko‘rildi. Shu bilan birga, Xitoy bilan chegaraviy masalalarni tinch yo‘l bilan hal etish, ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik va tranzit salohiyatlaridan unumli foydalanishga alohida urg‘u[4] bergan bo‘lsa, AQSh bilan hamkorlik Qozog‘istonning tashqi siyosiy muvozanatini ta’minlashda alohida o‘rin tutdi va Tengiz konini o‘zlashtirish bo‘yicha “Chevron” bilan tuzilgan uzoq muddatli shartnoma ikki davlatning iqtisodiy aloqalarini rivojlantirdi[17]. Biroq AQSh yo‘nalishi Rossiya va Xitoy bilan munosabatlarni to‘liq muvozanatlashtirish darajasiga yetmadi.

1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida Qirg‘iziston mustaqil va suveren davlat sifatida xalqaro maydonga chiqar ekan, dastlabki o‘n yilligi mamlakat uchun nafaqat ichki siyosiy tizimni shakllantirish, balki milliy tashqi siyosat strategiyasini belgilash davri bo‘ldi. 1991–2000-yillarda Qirg‘iziston tashqi siyosati ichki siyosiy evolyutsiya bilan bog‘liq holda olib borildi. Bu davrni bir necha bosqichlarga bo‘lib tahlil qilish mumkin. 1990–1993-yillar demokratik institutlarning shakllanishi va siyosiy liberallashuv bilan ajralib turdi. Ayni davrda tashqi siyosatda asosiy e’tibor xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishi, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish, qo‘shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga qaratildi. Parlament-prezidentlik modeliga yaqin tizim shakllanib, tashqi siyosiy qarorlar nisbatan muvozanatli institutlar orqali amalga oshirildi[13].

1993–1995-yillarda yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan davlat boshqaruvi va tashqi siyosat mexanizmlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Konstitutsiya hokimiyatlar bo‘linishi, prezidentning umumxalq tomonidan saylanishi

va davlat hokimiyati bilan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning ajratilishini belgiladi. Prezidentga tashqi siyosatda bir qancha vakolatlar berildi, u davlat nomidan xalqaro munosabatlarni yurituvchi asosiy subyektga aylandi[8]. Jogorku Kenesh (Parlament) bilan prezident o‘rtasida siyosiy qarama-qarshiliklar kuchaya boshladi. Islohotlar masalasidagi kelishmovchiliklar tashqi siyosatdagi ustuvor yo‘nalishlarga ham ta’sir ko‘rsatdi[16]. 1994-yilda parlamentning tarqatilishi va ikki palatali parlamentga o‘tilishi siyosiy tizimni markazlashtirish jarayonini tezlashtirdi. 1995-yildan boshlab prezidentlik hokimiyatini kuchaytirish kursi ochiq namoyon bo‘ldi. Bu tashqi siyosatda ham markazlashuvni kuchaytirib, qarorlar qabul qilishda prezident apparatining yetakchi rolini mustahkamladi. Xalqaro aloqalarda Qirg‘iziston ko‘p vektorli siyosat yuritishga intildi: Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlari, G‘arb mamlakatlari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik rivojlantirildi[12].

1996-yil 10-fevraldagi referendum tashqi siyosiy strategiyaning institutsional asoslarini tubdan o‘zgartirdi. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartishlar prezidentni davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilovchi asosiy shaxs sifatida mustahkamladi. Prezident “xalq birligi va davlat hokimiyatining ramzi” deb e’lon qilinib, tashqi siyosatni to‘liq yo‘naltirish vakolatiga ega bo‘ldi[11]. Endilikda hukumat va parlament tashqi siyosatda mustaqil subyekt emas, balki prezident siyosatini amalga oshiruvchi institutlarga aylandi. Bu davrda Qirg‘iziston tashqi siyosati kuchli prezidentlik boshqaruvi sharoitida olib borildi. Diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini tayinlash, xalqaro shartnomalarni tasdiqlash, tashqi siyosiy ustuvorliklarni belgilash deyarli to‘liq prezident vakolatiga o‘tdi. Natijada tashqi siyosatda tezkorlik va markazlashuv ta’minlandi, biroq parlament nazoratining susayishi demokratik muvozanatni zaiflashtirdi.

1991-yilda Tojikiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan xalqaro faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi va tashqi siyosatning muhim maqsadi esa Tojikiston va MDHning janubiy chegaralari atrofida xavfsizlik va yaxshi

qo‘shnichilik muhitini shakllantirish bo‘ldi[6]. 1991-yil oxiri va 1992-yil boshlarida nisbatan tinch ichki siyosiy vaziyat sharoitida Tojikiston Respublikasining mustaqilligini jahon hamjamiyati tomonidan tan olish jarayoni boshlandi. Biroq, fuqarolar urushining boshlanishi bilan tashqi siyosat noma’lum tusga kirdi. 2000-yillardan boshlab vaziyat yaxshilanib, diplomatik munosabatlar rivojlana boshladi.

Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida postsovet Markaziy Osiyo davlatlari orasida Turkmaniston Rossiya bilan eng kam siyosiy va institutsional aloqalarga ega bo‘lgan davlat sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, uning AQSh va Yevropa Ittifoqining yetakchi mamlakatlari bilan munosabatlari ham nihoyatda past darajada rivojlandi. O‘zbekiston mintaqada eng muvozanatli va samarali tashqi siyosat muhitini yarata oldi. Qozog‘iston esa tashqi siyosatda iqtisodiy jihatdan keng diversifikatsiyalashga erisha olgan bo‘lsa-da, siyosiy jihatdan Rossiyaning kuchli ta’siri ostida qoldi. Qirg‘iziston va Tojikiston esa tashqi siyosatda o‘z ichki muammolari va ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarini hal etishda tashqi donor davlatlarga qaramligi ortib bordi.

Xulosa

Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosati mustaqillikdan keyingi davrda murakkab tarixiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta’sirida shakllandi. Mintaqa davlatlari umumiy muammolarga ega bo‘lishiga qaramay, har biri o‘z milliy manfaatlari va ichki siyosiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli tashqi siyosiy strategiyalarni tanladi. Xususan, Turkmaniston betaraflik siyosatini, Qozog‘iston ko‘pvektorlikni, O‘zbekiston esa muvozanatli va pragmatik yondashuvni asosiy yo‘nalish sifatida shakllantirgan.

Shuningdek, tashqi siyosatning samaradorligi ko‘p jihatdan davlat ichidagi siyosiy barqarorlik, institutsional rivojlanish darajasi va rahbarlarning siyosiy qarashlariga bog‘liq holda rivojlanganligini ta’kidlash lozim. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, Markaziy Osiyo davlatlari uchun tashqi siyosatda muvozanatni saqlash,

yirik davlatlar o‘rtasida strategik manevr qilish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dergachov, O. (1995). Geopolitics in the postcommunist world. In The political analysis of postcommunism (pp. 239–263). Kyiv: Political Thought.
2. Kasenov, O. (1999). The national security of the Republic of Kazakhstan: Windows of vulnerability. In Russia and Eurasia documents annual (Vol. 2, pp. 250–256). Gulf Breeze, FL.
3. Kurbonova, Z. M. (2023). The specificity of acquisition of state independence in the Central Asian republics. Journal of the Russian-Tajik (Slavic) University, 3(3), 104–115.
4. Laruelle, M., & Peyrouse, S. (2009). China as a neighbor: Central Asian perspectives and strategies. Washington, DC; Stockholm.
5. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida 336-I-son 26.12.1996. https://lex.uz/docs/-39149
6. Абдурахмонов, А. А. (2007). Развитие внешней политики Республики Таджикистан со странами СНГ (Кандидатская диссертация по политическим наукам, специальность 23.00.02). Душанбе.
7. Абрамов, А. В., & Алексеев, Р. А. (2023). К оценке траекторий трансформаций постсоветских политических систем. Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 4: История. Регионоведение. Международные отношения, 28(3), 56–58.
8. Акунов, А. (n.d.). Государственное управление Кыргызстана в транзитный период (с. 111).; Чиналиев, У. (1998). Реализация принципа разделения властей в современном Кыргызстане. Киев (с. 23).; Эркебаев, А. (1997). 1990 год: приход к власти А. Акаева. Бишкек (с. 44).

9. Алексеев, Р. А., & Абрамов, А. В. (2022). Конституционно-правовое оформление постсоветских политических систем: сравнительный анализ. Северо-Кавказский юридический вестник, (4), 79.
10. Багдасарян, В. Э. (2017). СССР: что и почему не получилось? Журнал политических исследований, 1(3), 23–28.
11. Жумалиев, К., & Ожукеева, Т. (1998). XXI век: институт президентства в Кыргызской Республике. Бишкек (сс. 29–31).; Укушев, М., & Бокоев, Ж. (1997). Президент Кыргызской Республики. Бишкек (сс. 131, 142).
12. Кадырбеков, А., & Курманов, З. (1998). Механизмы парламентского контроля в странах Центральной Азии. В Демократические процессы в Центральной Азии: опыт и перспективы. Бишкек.
13. Малабаев, Дж. (1997). История государственности Кыргызстана. Бишкек: Илим.
14. Назарбаев, Н. А. (1996). Стратегия становления и развития Казахстана как суверенного государства. In Н. А. Назарбаев, Пять лет независимости. Из докладов, выступлений и статей Президента Республики Казахстан (pp. 92–125). Алматы.
15. Токаев, К. К. (1998). Основные аспекты процесса становления и развития внешней политики Республики Казахстан. In Актуальные проблемы внешней политики Казахстана (pp. 11–33). Москва.
16. Сааданбеков, Ж. (2000). Сумерки авторитаризма: закат или рассвет. Киев.
17. Сулейменов, Т. С. (1995). Вопросы экономики в казахстанско-американских отношениях. In Внешняя политика Казахстана (pp. 161–166). Алматы; Москва.